

## XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRIB, AHOLI TURMUSH DARAJASI VA SIFATINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

**Sh.A.Sulonov**

*SamISI "Real iqtisodiyot" kafedrası prof.v.b., i.f.n*

**Sh.Sh.Shomurodova**

*SamDTU "Farmatsiya ishini tashkil qilish" kafedrası assistenti*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, aholining turmush darajasini yaxshilash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash evaziga uzluksiz iqtisodiy o'sishga erishishdek dolzarb vazifa qo'yilgan. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotda erishgan yutuqlarning asosi – Yangi O'zbekiston, yangicha dunyoqarash, mulk shakllarining takomillashuvi, iqtisodiyotdagi keskin tuzilmaviy o'zgarishlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortib borishi bilan baholanishiga alohida e'tibor berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish, kapital, kapitalist, qo'shimcha foiz, ko'chmas kapital, ishbilarmonlik, faoliyat, daromad, ishchi, mehnat, maosh, ishlab chiqarish, omil, ijtimoiy samaradorlik, xodim, ishlab chiqarish, jarayon, ijtimoiy, rivojlanish, aholi bandligi.*

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish uchun tadbirkorlikning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish lozim bo'ladi. Tadqiqot jarayonida umumiylikdan xususiylik sari o'rganish metodologiyasini tanladik. Chunki aholining makro darajadagi farovonligini, yashash darajasi va sifatini o'rganmasdan turib, bevosita aholi farovonligi bilan bog'liq mikro darajadagi muammolar to'liq o'z yechimini topmasligi mumkin. Ammo makro darajadagi aholining farovonligi, yashash darajasi va sifatini o'rganishni imkoniyati bo'lmadi. Shu tufayli masalani bevosita tadbirkorlikni rivojlantirish masalalaridan boshlashga to'g'ri keldi.

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirib, aholi turmush darajasiva sifatini oshirish bo'yicha bir qancha makro va mikro darajadagi istiqbolli yo'nalishlar belgilangan. Bu bevosita hozirgi va kelgusi taraqqiyotimiz uchun obyektiv zaruratdan kelib chiqmoqda. Chunki, mamlakatimizda aholi, shu jumladan oilalar farovonligini, uning yashash darajasi va sifatini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Shu tufayli mazkur masala bo'yicha tegishli huquqiy asoslar yaratildi, ya'ni bir qancha qonunlar, sohaga oid farmonlar va qarorlar, ular asosida turli davlat va hududiy dasturlar ham ishlab chiqildi.

Birinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlash. Har bir jarayon va sohaning rivojlanishi uchun ularning qonuniy asoslari yaratilgan bo'lishi lozim. Buning uchun tadbirkorlik bilan shug'ulanish istagi bulgan aholiga O'zbekiston Respublikasining bir qancha me'yoriy huquqiy hujjatlar shakllantirildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining bandligini ta'minlash borasida bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida tadbirkorlikni mahallalar faoliyati bilan qo'shib olib borish zarurati ham tug'ildi. Mahallalarni tadbirkorlik bilan hamkorligini ta'minlash borasida ham bir qancha huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda. Xususan, tadbirkorlik orqali mahalla byudjetini shakllantirish va mahallalarni to'laqonli subyektga aylantirish bo'yicha bir qancha tavsiyalar ham shakllantirildi.

Ikkinchidan, mahallada oilalarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash, bandlik muammosini hal qilish uchun, uning kelajakda mustaqil byudjetini tashkil qilib moliyaviy manbaini ham hal qilish maqsadga muvofiq.

Mahalalar demokratik bo'g'in sifatida bevosita aholi bilan ishlaganligi tufayli ular bilan bog'liq juda katta ijtimoiy muammolarni hal qilishga to'g'ri kelmoqda. Chunki ushbu tashkilot aholi bilan bevosita ishlaydigan eng quyi bo'g'in hisoblanadi. Ammo ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun hozirgi kunda mahallalarda o'zlarining mustaqil byudjeti va mos ravishda mablag' yetishmaydi. Natijada hozirgacha mahallalar byudjetga qaramligicha qolib kelmoqda. Shu tufayli uning byudjetini tashkil qilish va uni mahallaning o'zi hisobidan shakllantirish maqsadga muvofiq.

Hozirda mahallalarda ko'plab hech joydan ro'yxatdan o'tmasdan yashirin holda faoliyat ko'rsatayotgan yakka tadbirkorlar, nima qilishini bilmay yurgan ishsizlar mavjud. Ammo mahallaning o'zi bularni ish bilan band qilishga unchalik qiziqishi yo'q. Chunki, ushbu ishni yo'lga qo'yish uchun hech qanday rag'batlantirish mexanizmi mavjud emas. Buni yo'lga qo'yish uchun mahalladagi yakka tadbirkorlar, o'zlarini-o'zlari ish bilan band qilgan aholi, mahalla tomonidan tashkil qilingan kasanachilarga ham soliqlarini mahallaga to'laydigan huquqni berish kerak. O'zi topgan mablag'ini mahallaning o'zi mahalla faollari, jamoatchilik bilan tegishli nizom asosida mahalla ehtiyoji uchun foydalanishlari mumkin bo'ladi. Ushbu tavsiyani viloyat mahalalari nomidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Oliy Majlis palatalariga murojaat bilan chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bunday holda mahallalar byudjetga qaram bo'lmasdan, har bir mahalla o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlaydigan imkoniyatga ega bo'ladi va ma'lum vaqtdan keyin mahallaning o'zi topgan mablag'ining bir qismini byudjetga to'laydigan mexanizmi va imkoniyati yaratiladi. Buning afzalligi mahallalar yangi ish o'rinlarini yaratishga qiziqishi ortadi va mahalalar o'rtasida ushbu holat bo'yicha sog'lom raqobat vujudga keladi. Har bir mahalla o'zlarini-o'zlari "boqishi" uchun kurashadi, yangi ish o'rinlarini yaratishga manfaatdorligi oshadi. Shunchaki mayda tadbirkorlik bilan shug'ullanib, hech joydan ro'yxatdan o'tmasdan mahalla doirasida faoliyat ko'rsatayotgan

tadbirkorlar bo'lmaydi. Endi bular mahallaning o'zi nazorat qiladi. Ushbu tadbir bilan yashirin iqtisodiyotning ham oldi olinadi.

Ma'lumki, mahalla aholi bilan ishlaydigan quyi bo'g'in. Aholining iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy kabi hamma muammolari aynan shu yerda aniqlanadi. Ammo u mustaqil subyekt bo'lishiga qaramasdan o'zining byudjetiga ega emas va o'zlarini-o'zlari mablag' bilan ta'minlash imkoniyatiga ham ega emas. Natijada mahallalar davlat va mahalliy byudjet mablag'lariga qaram holda faoliyat ko'rsatmoqda. Bu holat juda ko'plab muammolarni hal qilish imkonini bermaydi. Oqibatda mahallalarda yakka tadbirkorlar, o'zini o'zi ish bilan ta'minlaydiganlarni ko'paytirishga, yangi ish o'rinlari yaratib, o'zining iqtisodiy ahvolini ichki imkoniyatlar evaziga yaxshilashga ham hech qanday rag'bat yo'q.

Ikkiinchidan, qishloq mahallarida "Kasanachilik markazlari"ni tashkil qilish. Mamlakatimizning qishloqlarida ayollarning aksariyat qismi ishsiz, ularni ishga joylashtirishga mahallaning unchalik qiziqishi yo'q. Yangi ish o'rinlarini yaratish uchun yirik qishloqlarda "Kasanachilik markazlari"ni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Ularning soliqlarini mahalla byudjetiga to'lash tartibini joriy qilish ham lozim bo'ladi. Shu tariqa ishsiz ayollarning uylariga tegishli dasgohlarni va jihozlarni yetkazib, kasanachilikni tashkil qilish natijasida ularning bandligi ta'minlanadi va mahallalarning ham byudjeti ichki imkoniyatlar evaziga shakllanadi.

Yana bir jihat, hozirgi paytda juda ko'p qishloqlarimizda ko'pbolali ayollar bolalariga qarab ishsiz holda yashamoqda. U yerlarda kasanachilikni tashkil qilish uchun yirik korxonalarining o'zi yo'q. Shu tufayli ishsizlar soni ortib bormoqda. Ushbu holat ish bilan bandlikning yangi yo'nalishlarini joriy qilishni taqozo qiladi.

Ushbu muammoni hal qilishning bir yo'li, ta'kidlanganidek, u yerlarda kasanachilikni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda oilaviy tadbirkorlikning yo'nalishlaridan biri bo'lgan kasanachilikni yirik korxonalar bilan birga hududlarda, ayniqsa yirik korxonalar bo'lmagan qishloq joylarda joriy qilish mumkin. Bu oila farovonligini oshirish va hudud iqtisodiyotini rivojlantirishning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ushbu tadbirning afzalligi, birinchidan, mablag'i bo'lmagan aholini o'z uyida yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ish bilan ta'minlanadi. Ikkinchidan, yirik korxonalar yo'q qishloq joylarda ham kasanachilik paydo bo'ladi. Uchinchidan, ushbu holatni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatni o'zgartirib, kasanachilik uyushmasi va fondini tadbirkorlarning o'zlari ham ochishi mumkinligi qayd etiladigan bo'lishi lozim bo'ladi. To'rtinchidan, aholining qo'shimcha daromadi ko'payib farovonligi oshadi, ularning yashash darajasi va sifati o'nglanadi.

Uchinchidan, qishloqlarda "Turistlarga xizmat ko'rsatadigan mehmondorchilik markazi"ni tashkil qilish lozim. Qishloqlarda, ta'kidlanganidek, ishsizlik muammosi shaharga nisbatan katta, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlari kam qishloq mahallalari markazlarida. Ular kelgan turistlarni mehmon uylariga joylashtiradi va ma'lum miqdorda mablag' topadi. Buning ham bir qismini mahalla byudjetiga to'laydi.

Turistlarni qishloqlarga turli yo'nalishlar bilan olib kelish bilan mazkur markaz shug'ullanadi va markazga a'zo bo'lgan oilalar uyiga mehmonlarni joylashtiradi, natijada ularning ish bilan ta'minlanishi va daromad manbaining uzluksizligi ta'minlanadi. Ma'lum foizning mehmondorchilik markaziga o'tkazib boradi.

To'rtinchidan, mahallalarda "O'zini o'z ish bilan band qilish" mexanizmini joriy qilish lozim. Ko'pgina ishsiz yoshlar mavjud bo'lgan joylarda korxonalar hali qurilmagan, yangi ish joylari yaratilmagan bo'lishi mumkin. Bunday qishloqlarda ishsizlarga o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash tamoyilida faoliyat ko'rsatishga o'rgatish lozim bo'ladi. Bunda har bir kishi o'z imkoniyatidan kelib chiqib, kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanib boshlaydi. Ko'nikma hosil qilib, asta sekinlik bilan u kattarib boradi. Bular ham soliqlarini mahalla byudjetiga to'laydi. Shu tariqa mahalla byudjetiga mablag'larning tushishi ta'minlanib boradi.

Ushbu tadbirlarning hammasi mahallalarda ishsiz yurgan ko'pgina kishilarni ish bilan ta'minlash, bandlik muammosi o'z-o'zidan hal bo'lish imkoniyatini yaratadi. Chunki mahalla hududidagi aholini ish bilan ta'minlashdan manfaatdor bo'ladi. Mahallalar o'rtasida raqobat vujudga keladi. Mahallalar shu tariqa mablag'ga ega bo'lib, juda ko'p ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'zlari hal qilish imkoniyatlarini ham qo'lga kiritadi.

Beshinchidan, qishloqlarda "Bog'dan – aholi dasturxoniga" tomoyilini joriy qilish lozim. Hozirgi kunda qishloq joylardagi tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlari joylarda juda arzonga sotilmoqda, o'rtadagi vositachilar va savdogarlar arzon olib, tegishli xaridorini topib qimmatga sotmoqda. Natijada foyda mahsulotni yetishtirgandan (ishlab chiqargandan) ko'ra savdogarlarga ko'proq qolmoqda. Dalada yetishtirilgan mahsulotini qayta ishlash va sovutgichida saqlash imkoniyatlari yetarli emas.

Bularni inobatga olib, qishloq joylarda bog'dorchilik va polizchilik bilan shug'ullanadigan oilaviy korxonalarga mahsulotlarni saqlaydigan, qayta ishlaydigan va sotish bilan shug'ullanadigan barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan tadbirkorlik klasterlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Ushbu jarayonga imkon qadar shu oila a'zolarining o'zlarini va mahalladagi ishsiz aholini safarbar qilish lozim bo'ladi.

Bu birinchidan, yuqoridagi singari qishloq joylarda bog'dorchilik va polizchilik bilan shug'ullanadigan oilaviy tadbirkorlar sonining ko'payishiga olib keladi. Ikkinchidan, qishloqlarda mahsulotlarni saqlaydigan, qayta ishlaydigan mini zavodlar paydo bo'ladi. Uchinchidan, shu tadbirkorning o'zi sotish bilan shug'ullanadigan va foydasiga egalik qiladigan imkoniyatga ega bo'ladi. To'rtinchidan, oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan tadbirkorlar o'z mahsulotini bevosita aholi dasturxoniga yetkazish tizimini shakllantiradi. Bu oilaviy tadbirkorga yana qo'shimcha daromad olib keladi.

Ko'rinib turibdiki, tadbirkorlikning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirishga hali katta ehtiyoj mavjud. Shu tufayli mamlakatimizning iqtisodiy qudratini, ijtimoiy barqarorligini, bandlik muammosini hal qilish zaruratidan kelib

chiqqan holda, yangi ish o'rinlarini yaratish masalalarini ta'minlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida ahamiyat berish lozimligini taqozo qiladi. Bunda asosiy birlamchi bo'g'in mahallalar bo'lib, ularni (mahalla va oila xo'jaliklarini) bir-biri bilan hududiy birligini inobatga olgan holda ular o'rtasida iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni ham mustahkamlash borasida bir qancha tashkiliy-qtisodiy va huquqiy mexanizmlarni ishga solishni taqozo qilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Abduxalilovich, S. S. (2022). ORGANIZATIONAL ECONOMIC MECHANISMS OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE SERVICE SPHERE. *NeuroQuantology*, 20(18), 46.
2. Sh. Shomuradova THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF MERCHANDISING ACTIVITIES IN RETAIL ENTERPRISES // SAI. 2023. №D3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/theoretical-and-methodological-foundations-of-the-development-of-merchandising-activities-in-retail-enterprises> (дата обращения: 19.10.2023).
3. D. Togayeva (2023). ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE SAMARKAND REGION. *Science and innovation*, 2 (A1), 103-106. doi: 10.5281/zenodo.7541692
4. Султонов Ш. А., Шомуродова Ш. Ш. ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА АҲОЛИНИНГ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ ВА СИФАТИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 248-252.
5. Hasanov, H., Sultonov, B., Norbekov, F., & Togayeva, D. (2023). FOIZ STAVKASI VA DAROMADNING ISTE'MOL XARAJATLARIGA TA'SIRI TAHLILI. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(4), 5-13.
6. Шомуродова Ш. Ш. ИННОВАЦИОН САЛОҲИЯТ ВА УНИ АНИҚЛАШНИНГ ИЛМИЙ-УСЛУБИЙ МАСАЛАЛАРИ //IJDOKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 30. – С. 189-195.
7. Togayeva, D. (2023). QISHLOQ JOYLARDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI MASALALAR. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(6), 223-227.
8. Тогаева, Д. А., & Султонов, Б. А. (2023). Роль розничной торговли в повышении уровня жизни населения сельской местности. *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 759-763.
9. Azamatovna, T. D., & Abduxalilovich, S. B. (2023). The role of retail trade in raising the standard of living of the rural population. *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 754-758.